

NUTQ NUQSONLARINING ETIOLOGIYASI

Xalilova Maftuna Baxtiyor qizi

O‘zMPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim

fakulteti logopediya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada nutqning inson hayotidagi o‘rni, uning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan biologik va ijtimoiy omillar hamda nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari — etiologiyasi yoritilgan. Nutq buzilishlari tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy qarashlar asosida tahlil qilinib, ularning kelib chiqishida markaziy asab tizimi, ekologik, tibbiy-ijtimoiy va ruhiy-ijtimoiy omillarning roli ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: etiologiya, nutq nuqsoni, tibbiy omillar, ruhiy omillar. Ekologik omillar, radiatsiya, psixonevrologik sabablar.

SPEECH DISORDERS ETIOLOGY

Khalilova Maftuna

Student of the Department of Speech Therapy, Faculty of
Pedagogy-Psychology and Inclusive Education, UzMPU university

Abstract: The article discusses the role of speech in human life, the biological and social factors necessary for its development, and the causes of speech disorders — their etiology. Speech impairments are analyzed based on historical sources and modern scientific perspectives, emphasizing the influence of the central nervous system, as well as ecological, medical-social, and psycho-social factors in their emergence.

Keywords: etiology, speech disorder, medical factors, psychological factors, ecological factors, radiation, psychoneurological causes.

Nutq insonning asosiy kommunikativ faoliyati bo‘lib, uning to‘liq shakllanishi markaziy asab tizimi, eshitish, ko‘rish, artikulyatsion apparat va ijtimoiy muhit omillarining uyg‘un rivojlanishiga bog‘liqdir. U nafaqat aloqa vositasi, balki fikrlash, idrok, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarning rivojlanishida ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Insonning to‘laqonli ijtimoiylashuvi uchun nutqning to‘g‘ri shakllanishi zarur. Shu bois, nutq nuqsonlarini erta aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini belgilash va to‘g‘ri yo‘naltirilgan korreksion ishlarni olib borish logopediyaning asosiy vazifasidir. Bugungi kunda nutq nuqsonlari soni yil sayin o‘sib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Nutq nuqsonlari - adabiy til me'yorlaridan biroz bo'lsada chetga chiqqan nutqdir. Nutq nuqsonlari oddiy tovushlar talaffuzidagi kamchiliklardan butkul nutqsizlik holatigacha namoyon bo'lishi mumkin.

"Etiologiya" termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, (etio — sabab, logos — fan, o'rganish) sabablarni o'rganuvchi fan ma'nosini bildiradi. Sababiyat muammosi qadim-qadimdan insoniyat e'tiborini o'ziga qaratib kelgan. Sabablar haqidagi fan sifatida etiologiyaning rivojlanishi tibbiy va tabiiy fanlar qatorida umumiy ilmiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari "etiologiya" tushunchasining o'zi falsafiy kategoriyalardan biri bo'lib hisoblangani sababli, falsafaning rivojlanishida uning ham aloqasi bordir.

Qadimdan nutq nuqsonlari etiologiyasi haqidagi tasavvurlar yuzaga kelib, olimlar turli xildagi sabablarni ko'rsatib o'tishgan. Qadimgi grek faylasufi va shifokori Gippokrat nutq buzilishlarining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi asosiy omil bosh miyaning jarohatlanishi deb ta'kidlaydi. Boshqa grek faylasufi Aristotel (er.av.384—322-y.) esa nutq hosil bo'lish jarayonini periferik nutq apparatining anatomik tuzilishi bilan bog'lab, anatomik tuzilishdagi kamchiliklarni nutq buzilishiga sabab qilib ko'rsatgan. Ya'ni, u bosh omil sifatida periferik nutq apparatidagi kamchiliklar va buzilishlarni belgilaydi. Nutq buzilishlari sababini o'rganishning keyingi davrlarida ham bu ikki nutqayi nazar saqlanib qolgan,

Nutq buzilishlari etiologiyasida bosh miya jarohatlanishining "o'z o'рни" borligi eramizdan avvalgi 400 ming yil ilgari Gippokrat tomonidan aytib o'tilgan bo'lsa ham, bunga haqiqiy ilmiy tasdiq 1861 -yilda, fransuz shifokori Pol Broka tomonidan bosh miyada nutq markazi mavjudligi va bu markaz jarohatlanishi nutq buzilishini keltirib chiqarishi mumkinligi ko'rsatib berilgandan so'nggina berilgandir. Xuddi shunga o'xshash kashfiyot 1874-yilda Vernike tomonidan ham amalga oshirilgan: nutqni tushunishda bosh miya qobig'ining orqa bo'lagi katta rol o'ynaydi. Bu qismda begona nutqni qabul qilish jarayoni ro'y beradi.

Nutq buzilishlari etiologiyasi masalasi XX asrning 20-yillaridan jadal ishlana boshlandi. Bu yillarda tadqiqotchilar ilk bor, kelib chiqish sabablariga qarab nutq buzilishlarini tasniflashga urindilar. S.M. Dobrogayev (1922) nutq buzilishlari sabablari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatgan:

1. Oliy nerv faoliyati kasalliklari.
2. Anatomik nutq apparatida patologik o'zgarishlar.
3. Bolalikdan tarbiyaning yetishmaganligi.
4. Organizmning umumiy nevropatik holati.

M.Ye. Xvatsev ilk bor nutq buzilishlari sabablarini ichki va tashqi omillarga ajratdi. Shu bilan birga u organik (anatomyo-fiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik va psixo-nevrologik sabablarni ajratib ko'rsatdi.

Organik sabablarga hom iladorlik davrida, tug'ruq paytida va tug'ruqdan so'ng bosh miyaning yaxshi rivojlanmasligi va jarohatlanishi, shuningdek, nutq periferik organlaridagi turli xil organik buzilishlar kiritilgan. Organik buzilishlar markaziy (miyaning jarohatlanishi) va periferik sabablarga (eshituv organi jarohatlanishi, tanglay yoriqligi va artikulatsion apparatning boshqa morfologik o'zgarishlari) ajratilgan. **Funksional** sabablarni M.Ye. Xvatsev, I.P. Pavlovning ta'limoti orqali

tushuntiradi. Bu ta'limot markaziy nerv sistem asida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro munosabatini buzilishi haqida bo'lib, M.Ye. Xvatsev bu orqali organik va funksional, markaziy va periferik sabablarning o'zaro munosabati mavjudligini ta'kidlaydi. **Psixonevrologik** sabablarga u aqli zaiflikni, xotira, diqqat buzilishini va boshqa psixik jarayonlar buzilishini kiritgan.

So'nggi yillarda logopediya va neyropsixologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablarini yanada kengroq, kompleks tarzda o'rganishga imkon berdi. zamonaviy adabiyotlarda (To'xtayeva M., Ergasheva D., Volkova G.A., 2021–2023 yillar) bu omillar uchta yirik blokda tahlil qilinadi:

1. Ekologik omillar
2. Ruhiy omillar
3. Tibbiy-ijtimoiy omillar

Ekologik omillar inson organizmiga tashqi muhit orqali ta'sir etuvchi zararli sharoitlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida radiatsiya, sanoat chiqindilari, transport vositalaridan ajraladigan zararli gazlar, kimyoviy moddalar bilan ifloslangan havo va suv, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari alohida o'rin tutadi. Radiatsiya inson genetik tizimiga, ayniqsa homilador ayollarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa homilaning miya tuzilmalari va nutq markazlarining shakllanishida buzilishlar keltirib chiqaradi. Shuningdek, ekologik ifloslanish natijasida bola organizmida kislorod almashinuvi, modda almashinuvi jarayonlari buziladi, bu esa asab tizimining sekin rivojlanishiga sabab bo'ladi. Oziq-ovqat va suv tarkibida zarur mikroelementlarning, ayniqsa yod, rux va temirning yetishmasligi natijasida bolalarda aqliy hamda nutqiy rivojlanishning sustligi kuzatiladi. Demak, ekologik omillar uzoq muddatli va sekin ta'sir etuvchi omillar sirasiga kiradi, biroq ularning oqibatlari bola nutq faoliyatida jiddiy cheklanishlarga sabab bo'ladi.

Tibbiy-ijtimoiy omillar esa inson salomatligi, nasl, sog'lom turmush tarzi, tibbiy madaniyat darajasi bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha bola tug'ilishidan avval yoki tug'ruq jarayonida namoyon bo'ladi. Er-xotinning qarindosh bo'lishi, irsiy kasalliklarning mavjudligi, ota-onaning surunkali kasalliklari yoki zararli odatlari (chekish, spirtli ichimlik iste'moli, giyohvandlik) homiladorlik jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Bu esa markaziy asab tizimining patologik o'zgarishlariga, bola tug'ilganda miya faoliyatining sustligiga olib keladi. Homiladorlik davrida onaning sog'lig'iga e'tibor

berilmasligi, abortlar, ginekologik kasalliklar, kech yoki erta tugʻruqlar ham nutq markazlarining toʻliq shakllanmasligiga sabab boʻladi. Ayniqsa, onaning 16 yoshdan oldin yoki 40 yoshdan keyin birinchi farzandini tugʻishi xavfli holat sanaladi. Tugʻilish jarayonida bola asfiksiya, yaʼni kislorod yetishmovchiligiga uchrasa, bu holat markaziy asab tizimi va nutq apparatiga jiddiy zarar yetkazadi. Bolalik davrida oʻtkazilgan meningit, ensefalit, nevroinfektsiyalar, bosh miyaning jarohatlanishi natijasida ham nutq tizimining organik buzilishlari yuzaga keladi. Bu kabi holatlar dizartriya, afaziya, kechikkan nutq rivojlanishi kabi klinik koʻrinishlarda namoyon boʻladi.

Ruhiy-ijtimoiy omillar esa bola psixikasiga, hissiy holatiga va ijtimoiy tajribasiga bogʻliq. Bola nutqining shakllanishida oiladagi muloqot muhiti, ota-onaning emotsional yondashuvi va pedagogik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onaning bolaga nisbatan befarqligi, eʼtiborsizligi yoki aksincha, ortiqcha erkalatishi bola nutq faoliyatining tabiiy shakllanishiga toʻsqinlik qiladi. Nutq rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bolaning faol muloqotga kirishishi, savol berishi, soʻzlarni takrorlashi, atrofdagi tovushlarni tinglashi muhim oʻrin tutadi. Agar bu jarayon yetarli darajada qoʻllab-quvvatlanmasa, bola passiv tinglovchiga aylanadi, bu esa fonetik, leksik va grammatik tizimlarning rivojlanishida kechikishlarni keltirib chiqaradi. Oiladagi ijtimoiy muhit ham nutq rivojlanishiga bevosita taʼsir qiladi. Intellektual darajasi past, muloqot doirasi cheklangan, til madaniyati sust oilalarda bolalar nutqi sust rivojlanadi. Ota-onaning oʻz nutqidagi grammatik xatolar yoki tovushlarni notoʻgʻri talaffuz etishi bola uchun notoʻgʻri model boʻlib xizmat qiladi. Shuningdek, oilaning toʻliqsizligi, ota yoki onaning yoʻqligi, doimiy janjal va ziddiyatlar, zoʻravonlik yoki stressli sharoitlar bola ruhiyatiga kuchli zarba beradi. Bunday holatlarda bolalarda mutizm, duduqlanish, logofobiya kabi psixogen nutq buzilishlari rivojlanadi.

Ijtimoiy muhitning umumiy yomonlashuvi — iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, ekologik inqiroz, beqarorlik — bolalarda hissiy beqarorlikni kuchaytiradi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini pasaytirib, kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Natijada bola atrof bilan muloqotdan chetlanadi va nutq rivojlanishida orqada qolish holati kuzatiladi.

Nutq nuqsonlarining etiologiyasi — bu koʻp omilli, murakkab jarayon boʻlib, u biologik, psixologik va ijtimoiy sabablarning oʻzaro taʼsiri natijasida shakllanadi. Inson nutqining toʻliq rivojlanishi uchun markaziy asab tizimi, eshitish, koʻrish, artikulyatsion apparat hamda ijtimoiy muhitning uygʻun faoliyati zarur. Shu bois, bu tizimlardan birortasidagi buzilish nutq faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Tarixiy manbalardan maʼlumki, qadimgi olimlardan tortib zamonaviy tadqiqotchilargacha nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablarini chuqur oʻrganishga harakat qilganlar.

Gippokrat va Aristotel asarlarida bu holatning fiziologik asoslari tilga olingan bo'lsa, Broka va Vernike tadqiqotlari orqali nutq markazlarining miyada joylashuvi aniqlandi. Bugungi kunda esa logopediya, neyropsixologiya, tibbiyot va pedagogika fanlarining integratsiyasi natijasida nutq buzilishlari etiologiyasi yanada kompleks tarzda tahlil qilinmoqda.

Zamonaviy ilmiy manbalar asosida nutq nuqsonlarini keltirib chiqaruvchi sabablar ekologik, tibbiy-ijtimoiy va ruhiy-ijtimoiy omillar sifatida tasniflanadi. Har bir omil o'ziga xos tarzda bola nutqining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ekologik ifloslanish, irsiy kasalliklar, homiladorlik davridagi patologiyalar, oiladagi nosog'lom muhit, psixologik bosim va tarbiyaviy e'tiborsizlik — bularning barchasi nutq faoliyatida turli darajadagi nuqsonlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, logopedik amaliyotda nutq nuqsonlarini korreksiya qilishda faqat simptomlarga emas, balki ularning sabablariga — etiologiyasiga e'tibor qaratish zarur. Nutq nuqsonlarini erta aniqlash, ularning kelib chiqish manbalarini to'g'ri baholash va kompleks korreksion choralarni qo'llash orqali bolalarda to'laqonli nutq rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, nutq nuqsonlarini oldini olish va ularni bartaraf etish jamiyatning sog'lom avlodni tarbiyalashdagi muhim vazifalaridan biridir. Shu yo'nalishda logoped, psixolog, shifokor va pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. —560 b.
2. Bolalar rivojlanishiagi nuqsonlarning klinik asoslari [Matn] : O'quv qo'llanma / D.R. Madazizova. — Toshkent: « O 'zbekiston fayiasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 327 b.
3. Language and speech disorders in children. (2019). <https://www.cdc.gov/ncbddd/childdevelopment/language disorders.html#problems>
4. Maxsus psixologiya L.R.Mo'minova, SH.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova
5. Ayupova.M.Y. -Logopediyal O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent - 2007.
6. Rustamova, G. X. Q. (2025). Noto'liq oilaning jamiyatdagi o'rni va psixologik ta'siri. Science and Education, 6(4), 265-269.